



KORXONALAR FAOLIYATIDA NOANIQLIKNING MOHIYATI

Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna

Namangan davlat texnika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, PhD

ergasevafotima77@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy jarayonlarda shuningdek, korxonalar faoliyatida noaniqlik va uning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Bu tushunchaga oid olimlarning yondashuvlari o'rganilgan, bayon etilgan, uning yuzaga kelish sabablari ko'rsatib o'tilgan. Noaniqlik va riskning o'zaro munosabat tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: noaniqlik, axborot o'lchovi, muqobillaridan tanlash, axborot sifati, risk manbasi, noaniq tabiat omili, tashkiliy-iqtisodiy tizim barqarorligi va boshqaruvchanligi, riskning noaniqlikka bog'liqligi

Kirish

Aksariyat noaniqlik sharoitida kelajakdagi turli shart-sharoitlarga bog'lagan holda menejerlar ko'plab qarorlar qabul qiladi, lekin ular qarorlarni amalda nazorat qila olmay qoladi. Biroq, bunday noaniqliklar umumiy boshqaruv darajasida ham, risklarni boshqarish darajasida ham tizimni rivojlantirishni rejalashtirish bo'yicha ko'plab operatsiyalar uchun (birinchi navbatda strategik) zarurdir. Agarda rahbar qanchalik darajada yaxshi, kelajakka nisbatan tashqi va ichki sharoitlarni bashorat qila olsa, amalga oshirish mumkin bo'lgan rejalarni tuzish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Har qanday riskli vaziyat, birinchi navbatda, mavjud ma'lumotlarning yetarli emasligi bilan bog'liq. Agar harakat aniq bo'lsa, bo'lajak o'zgarishlar haqida to'liq ma'lumot mavjud bo'lsa va fors-major holatlari ehtimoli minimallashtirilsa, riskning paydo bo'lish darajasi past bo'ladi.

Noaniqlik - bu turli sabablarga ko'ra va birinchi navbatda, qarorni amalga oshirish shartlari, shu jumladan tegishli xarajatlar va natijalar to'g'risidagi to'liq yoki noto'g'ri ma'lumotlar natijasida yuzaga keladigan turli parametrlarning kelajakdagi qiymatlari to'g'risida to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri g'oya.

Noaniqlik muammosining ijtimoiy-iqtisodiy jihatida turli nuqtai nazardan "noaniqlik" toifasini tavsiflovchi bir qator terminologik tushunchalar guruhlarini ajratish mumkin. Bundan tashqari, noaniqlik to'g'risidagi har bir qoida boshqalar bilan bog'liq va qoidalarning mazmuniga zid emas, balki faqat mavjud g'oyalarni to'ldiradi va kengaytiradi[9].

Noaniqlikka bo'lgan yondashuv ko'plab olimlarning tadqiqotlari bilan birgalikda Ye.A.Kuzminning ilmiy izlanishlarida ko'rib chiqilgan[4]. Olimlarning noaniqlik bo'yicha yondashuvlarini quyidagicha guruhlariga tizimlashtirish mumkin:



1.Noaniqlik axborot o'ldhovi sifatida qabul qilinadi. Noaniqlik bo'yicha xuddi shunday yondashuvni M.Meskon, M.Albert, F.Xedouri, A.I.Arhipova, A.K.Bolshakova, R.M.Kachalov va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida ko'rish mumkin.

2.Noaniqlik, bilimlar to'liq aniqlanganda, tizimning "ideal sharoitlar" ga nisbatan holatini aks ettiradi. Noaniqlikni ma'lumot mutlaqo ma'lum va aniqlangan sharoitlarga nisbatan tizimning holati sifatida qabul qilish haqidagi g'oyalar W.E.Walker, P.Harremoes, J.Rotmans, P.Janssen, D.P.Thunnisen, E.E.Kulikova, M.I.Volkova, M.V.Gracheva boshqa ko'plab olimlar tadqiqotlarida yoritilgan.

3. Noaniqlik muqobil variantlarni tanlash imkoniyati va bu tanlovning ko'pligi (tanlovning o'zgaruvchanligi) sifatida qabul qilinadi. Muqobil variantlarning mavjudligi nuqtai nazaridan noaniqlik bilan shug'ullangan olimlar va mutaxassislar orasida C.Rodjer, J.Petch, L.F.Dogil, E.E.Kulikova va boshqalar bor.

4. Noaniqlik axborotning sifati (ishonchliligi, to'liqligi, qimmatliligi, dolzarbligi, aniqligi)ni belgilaydi. Bu muammo R Shiller, J Akerloff, D.Kanneman, A.Tverskiy, A.Benerji, V.D Milovidov va boshqalarning asarlarida ochib berilgan.

5. Noaniqlik riskning tegishli manbai hisoblanadi. Bu tadqiqot bilan rossiyalik va xorijlik tadqiqotchilar shug'ullangan va shug'ullanib kelmoqdalar. Bular jumlasiga L.N.Tapman, T.Bedford, R.T.Kuk, Ya.D.Vishnyakov, N.N.Radaev, N.B.Ermasova, V.V.Xristianovskiy, V.P.Shcherbina va boshqalarni kiritish mumkin.

6. Noaniqlik noma'lum tabiat omillari tomonidan yaratilgan hodisalarni amalga oshirishda birma'nodormaslikni nazarda tutadi. Bu M.Meskon, M.Albert va F.Xedouri ishlaridagi berilgan ta'rifda ko'rish mumkin: "Qaror noaniqlik sharoitida, potentsial natijalar ehtimolini baholash mumkin bo'lmaganda qabul qilinadi".

7. Noaniqlik tashkiliy-iqtisodiy tizimning boshqarilishi va barqarorligini tabiiy cheklovchi hisoblanadi. Boshqarish qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, tizim tashqi va ichki muhit ta'siriga shunchalik moslashuvchan bo'ladi.

Amalda, ma'lum bir vaqtning o'zida, shuningdek, uzoq muddatda vaziyat haqida barcha kerakli ma'lumotlar hech qachon ma'lum bo'lmaydi[2]. Shu sababli, obyektning kelajakdagi holatiga nisbatan noaniqlik har doim mavjuddir. Ushbu noaniqlik mavjud ma'lumotlarga asoslanib, quyidagilarni aniqlash mumkin emasligidan kelib chiqadi:

a) tahlil qilinadigan obyekt kelajakda qanday holatlarni qabul qilishi mumkin - vaziyatning keyingi rivojlanishini modellashtirish turli xil tashqi va ichki faoliyat sharoitlariga qarab obyekt qabul qiladigan juda ko'p turli xil holatlarni yaratishi mumkin;

b) bu obyekt ma'lum mumkin bo'lgan holatlardan qaysi birini qabul qila oladi - aslida obyekt mumkin bo'lgan holatlardan qaysi birini qabul qilishini aniq bashorat qilish mumkin emas, bundan tashqari, obyektning hozirda noma'lum holatlarining mavjudligi omilini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Noaniqlik shaklini tanlash joriy vaziyat to'g'risida to'liq tasavvurni yaratish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni qidirishni boshlash imkonini beradi.



Noaniqlik vaziyatning kelajakdagi rivojlanishini ko'p qirrali xususiyatini, ya'ni uning natijalarining bir ma'nodor emasligini aks ettiradi[3].

Noaniqlik sharoitida vaziyatning rivojlanishini va obyekt holatidagi o'zgarishlarni bashorat qilishning qiyinligi riskni zamonaviy biznesning ajralmas qismiga aylantiradi, shuningdek, prognozlash va risklarni boshqarishning turli mexanizmlarini shakllantirishga yordam beradi[1,5].

Noaniqlikni yuzaga kelishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- 1) tabiiy jarayonlar va hodisalarning, tabiiy ofatlarning (bo'ronlar, zilzilalar, toshqinlar va boshqalar) o'z-o'zidan sodir bo'lishi;
- 2) ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarning tasodifiyligi (bir xil hodisalar o'xshash sharoitlarda o'zini turlicha namoyon qiladi);
- 3) qarama-qarshi tendentsiyalar, manfaatlar to'qnashuvi (harbiy harakatlar, millatlararo nizolar);
- 4) ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning ehtimollik xususiyati (alohida ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarning salbiy oqibatlarini aniqlash mumkin emas);
- 5) o'rganilayotgan obyekt, jarayon, hodisa haqida yetarli ma'lumot yo'qligi;
- 6) qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishda resurslar(moddiy, moliyaviy, mehnat)ning cheklanganligi;
- 7) ilmiy bilishning hozirgi darajasi va usullarini hisobga olgan holda obyektning aniq bilishning mumkin emasligi;
- 8) insonning ongli faoliyatining cheklanishi, ijtimoiy-psixologik munosabatlardagi farqlar, baholashlar, xatti-harakatlar.

Noaniqlik omillarini e'tiborsiz qoldirishga imkon bermaydigan bir nechta sabablar mavjud, ulardan biri tabiatiga ko'ra printsiptial jihatdan to'liq aniqlab bo'lmaydigan ko'plab hodisalarning tasodifiyligi, ularga doir olingan axborotlarning kelajakdagi o'zgaruvchanligi va ulardagi muammoli vaziyatlarni vujudga kelishidir[6,7,8].

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, noaniqlik va risk tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar quyidagichadir:

- 1) risk noaniqlik bilan bog'liq - bu holda noaniqlik sharoitlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi va (yoki) noto'g'riligi natijasida yuzaga keladigan turli parametrlarning qarorni amalga oshirish, shu jumladan tegishli xarajatlar va natijalar hamda boshqa sabablar uchun kelajakdagi qiymatlari to'g'risida to'liq yoki noto'g'ri tasavvur sifatida tushuniladi. Noaniqlik yechimni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan noqulay vaziyatlar va oqibatlar ehtimoli bilan bog'liq bo'lib, bu riskka olib keladi;
- 2) riskli vaziyat - noaniqlikning bir turi bo'lib, hodisalarning yuzaga kelishi ehtimoli mavjud va ularning ehtimolini obyektiv baholash mumkin. Risk va noaniqlik o'rtasidagi farq ma'lumotni aniqlash usulini anglatadi va boshqarilmaydigan o'zgaruvchilarning ehtimollik xususiyatlarining mavjudligi (xavf bo'lsa) yoki yo'qligi (noaniqlik holatida) bilan belgilanadi.



Ushbu farqlar operatsiyalarni tadqiq qilishning matematik nazariyasida hisobga olinadi, bu yerda ular risk ostida va shunga mos ravishda noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish muammolarini ajratadilar.

Shunday qilib, biz noaniqlik va risk tushunchalari o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik haqida gapirishimiz mumkin: noaniqlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, vaziyatning rejalashtirilmagan stsenariy bo'yicha rivojlanishi riski shunchalik yuqori bo'ladi va natijada xavf paydo bo'ladi. Biroq, noaniqlik muvaffaqiyatsizlikka teng kelmaydi, chunki mavjud sharoitlar oxir-oqibat riskni kamaytirishi va ijobiy natijaga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вишняков Я.Д. Общая теория рисков : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Я.Д.Вишняков, Н.Н.Радаев. – 2-е изд., испр. – М. : Издательский центр «Академия», 2008. – 368 с.
2. Корабейников И.Н. Риск-менеджмент [Электронный ресурс]: учебное пособие / И.Н.Корабейников, О.С.Смотрина, Л.Ю.Бережная; Оренбургский гос. ун-т. – Оренбург: ОГУ, 2019. – 172 с.
3. Королькова Е. М. Риск-менеджмент: управление проектными рисками: учебное пособие для студентов экономических специальностей / Е.М. Королькова. – Тамбов : Изд-во ФГБОУ ВПО «ТГТУ», 2013. – 160 с.
4. Кузьмин Е. А. Неопределенность в экономике: понятия и положения // Вопросы управления. № 2 (2), 2012. — С. 80 — 92.
5. Уродовских В.Н. Управление рисками предприятия: Учеб. пособие / В.Н. Уродовских. – М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2011. – 168 с.
6. Эргашева, Ф. И. (2023). BOШQAPUV JAPAEHIIHINING PИBOЖЛAНИШИ: MУMMOЛAP BA EЧИMЛAP. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).
7. Эргашева, Ф. И. (2023). ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ЖAPAEHИДА BOШQAPUVHINING ACOCИЙ MACAЛAЛAPИ. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).
8. Эргашева, Ф. И. (2023). TAДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА AХБOPOTЛAPДAН ФOЙДАЛAНИШ XУCУCИЯТЛAPИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
9. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Неопределённость>